

ALISHER NAVOIYNING “TARIXI ANBIYO VA HUKAMO” ASARIDAGI YUSUF OBRAZI HAYO VA SABR TIMSOLI SIFATIDA

Bahodirova Madinabonu Nodirjon qizi

FarDU, Filologiya 3-bosqich.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yusuf alayhissalom qissasining Qur’oni Karimda qanday talqin etilgani, Alloh go’zallikni o’ndan to’qqizini Yusuf (a.s.)ga, o’ndan birini butun insonlarga bergani, Zulayho bilan bo’lgan voqealar, Yusuf turkumidagi dostonlarning bir-biridan farqlanuvchi bir necha jihatlari, u zotning hayosi va sabri haqida gap ketadi.

Kalit soʻzlar: Qur’oni karim, Rasullulloh (s.a.v.), Yusuf (a.s.), Tarixi anbiyo va hukamo, Qisasi Rabg’uziy, Zulayho.

Yusuf qissasi Qur’ondagi eng uzun va axzar qissa hisoblanib, butun boshli Yusuf surasi u zotning hikoyasiga, boshidan o’tgan voqealarga bag’ishlangan. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” (Payg’ambarlar va olimlar tarixi) asarida keltirilgan Yusuf payg’ambar qissasining genezisi Kalomullohga borib taqaladi. Navoiyning ushbu kitobida Yusuf (a.s.) qissasini birmuncha qisqa talqinda beradi. Bu qissani anchadan beri yozib yurishni xohlagani tufayli, Xudo umr va umrga qo’shib tavfiq bersa turk tilida shu mavzuda alohida qissa yaratmog’ini niyat qiladi, ammo Navoiyning umri ungacha yetmaydi. Shu kichkina qissani ham Navoiy yuksak ma’no va mazmun bilan yoritadi. Nasrda yozganidan ko’ngli to’lmagani uchun har bir voqeadan keyin o’sha voqeani o’zida jam qilgan to’rtlikni keltiradi.

Yusuf alayhissalom Alloh taolo yaratgan bandalarining ichida eng go’zal yuzlisi bo’lib, Rosulluloh (s.a.v.) aytganlar: “Alloh taolo go’zallikni o’n bo’lakka bo’lib yaratdi. Shundan to’qqiz bo’lagini Yusuf (a.s.) ga, bir bo’lagini butun insonlarga berdi”, - deb aytadi (Imom Termiziy rivoyati). Ya’ni bu hadisadn ko’rinib turganidek, Yusuf (a.s.) ning go’zalligi butun insonlardan ko’ra ortiqroq bo’lgan, u zot nafaqat tashqi tomondan, balki axloqi, hayo va sabrida ham ajralib turgan.

“Tarixi anbiyo va hukamo” da keltirililishicha, misr azizlarining ayollari o’rtasida “Zulayho o’z quliga oshiq bo’libdi”, - deb gap chiqarishadi. Shunda Zulayho Yusuf (a.s.)ni misr azizlarining ayollariga ko’rsatmoqchi bo’lib majlisga olib kiradi, shunda turunj to’g’rayotgan ayollar u zotni ko’rib turunj o’rniga qo’llarini kesishadi. Nosiruddin Burhonuddin Rabg’uziyning “Qisasi Rabg’uziy” asarida qo’lidagi turmak va qanug’lar o’rniga qo’llarini nimta-nimta qilishadi. Jomiy va Durbekning asalarida esa, “gosh” deb beriladi. Bugungi kunda turunj so’zi mandarin, apelsin kabi sitrus meva, gosh esa sabzi kabi talqin etiladi. Kalomullohdagi Yusuf surasida esa “Bu odam emas, bu ulug’” farishtadur!” deb hayratdan qo’llarini kesishadi. Shuningdek “tarixi

anbiyo va hukamo” asarida Navoiy Yusuf (a.s.)ni „Bani odam jinsining jambilrog‘idir” ya’ni “odamlarning eng go‘zalidir”, - deydi. Asarda keltirilishicha, Yusuf (a.s) bolalik chog‘larida oynadan o‘z aksini ko‘rib, “oyo, agar men qul bo‘lganimda meni bahomni kim bera olar edi, meni juda qimmatga sotib olgan bo‘lishar edi”, - deydi. Alloh taoloni bunga g‘azabi kelib, hasadgo‘y akalari tomonidan o‘ldirilmay, quduqqa tashlanib, 17 dirhamga sotishadi, chunki payg‘ambar qoni to‘kilsa u avlodidan payg‘ambarlik nuri batamom olib tashlanardi. “Qisasi Rabg‘uziy”da 18 misr yarmog‘i, Durbek va Jomiyda esa 20 dirham deb beriladi. Bu asarda Yusuf payg‘ambar Allohdan qo‘rquvchi asl banda sifatida gavdalanadi. Qullikdan sotib olgan hojasining ayoli Zulayho uni sevib qolib zinoga taklif qilsa, uni rad etadi, “Allohdan qo‘rqgil, hech kim ko‘rmasa ham u zot ko‘rib, bilib turibdur”, - deydi. Qo‘rqoq birinchi musht ko‘taradi deganlaridek Zulayho Yusufning haqiqatni aytib berishidan qo‘rqib, bo‘hton uyushtirib, unga tuxmat qiladi. Shu paytda Allohning mo‘jizasi yuz berib, beshikda yotgan chaqaloq tilga kiradi va “Agar Yusufning egnidagi ko‘ylak oldidan yirtilgan bo‘lsa Yusuf, ortidan yirtilgan bo‘lsa Zulayho aybdor”, - deydi. Qarashsaki ko‘ylak ortidan yirtilgan, haqiqat ochiladi, lekin Zulayho makrini ishga solib Yusuf (a.s.)ni qamoqqa tashlatadi. U zotning naqadar sabrli ekanini 7 yil qamoqda o‘tirganidan ham bilsak bo‘ladi. Ya’ni u zinodan, xarom ishlar qilgandan ko‘ra zindonda yotishni afzal biladi. Bu makonda tush ta’birlash xususiyati aks etadi. U zindonda bo‘lgan paytda ikki mahbus bilan birga bo‘ladi. Ulardan biri podshohning sharob quyuvchisi (soqiy), ikkinchisi esa oshpazi (bakovul) edi. Ikkalasi bir kechada tush ko‘radi va Yusufdan u tushlarning ta’birini so‘raydi. Sharob quyuvchi aytadi: “Men tushimda podshohning qo‘liga uzum siqib, sharob quyayotgan edim, uni ichib menga iltifot va tahsin aytdi”, – deydi. Non yopuvchi esa aytadi: “Men boshim ustida non ko‘tarib borayotgan edim, qushlar kelib, o‘sha nonlarni yedilar”, – deydi. Yusuf alayhissalom ularning tushi ma’nosini Allohning ilhomi bilan to‘g‘ri ta’bir qiladi: “Ey non yopuvchi, sen esa osib o‘ldirilasan, qushlar boshingdan yeydi, ey sharob quyuvchi, sen ozod bo‘lib, yana podshohning xizmatiga qaytasan, shunda meni eslagaysan”, – deydi. Vaqt o‘tib, voqealar xuddi Yusuf aytgandek sodir bo‘ladi: biri ozod bo‘lib, podshoh huzuriga qaytadi, ikkinchisi esa qatlga hukm qilinadi. Lekin ozod bo‘lgan soqiy Yusufni 7 yilgacha eslamaydi. Bir kecha Malik Rayyon tush ko‘radi, tushida 7 semiz qo‘yni 7 oriq qo‘y yegani, 7 toza ko‘kargan ho‘shani 7 quruq ho‘sha chirmab olgani voqealanadi. Bu tushni ta’bir qilishga koin va muabbirlar ojiz bo‘lgan paytda haligi soqiyni yodiga zindondagi Yusuf (a.s.)tushib, uni podshohga aytadi. Yusuf (a.s.) semiz qo‘ylar, toza ho‘shalar to‘qlik va ziroatli yilga dalil, oriq qo‘ylar bilan quruq ho‘shalar esa qahatlikni anglatadi deb aytadi. Navoiy bu voqeani Yusufning sabri, iymoni va Alloh bergan ilmning qudratini ko‘rsatish uchun keltiradi. Yusuf alayhissalom zindonda bo‘lsa ham, tush ta’biri ilmi bilan odamlarga foyda keltirgan, sabr bilan Allohning irodasiga bo‘yin egadi.

Xulosa qilib aytganda Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asaridagi Yusuf alayhissalom haqidagi voqeani nafaqat tarixiy bir rivoyat sifatida, balki axloqiy va ma’naviy saboq sifatida talqin qiladi. Yusufning qamoqda tush ta’bir etish voqeasi — ilm, sabr, imon va toqatning yuksak namunasidir. Yusuf alayhissalom insofsizlik bilan zindonga tashlansa ham, u g‘azab yoki g‘amga berilmaydi, balki Alloh bergan ilmini odamlarga foyda yetkazish yo‘lida ishlatadi. Bu bilan Navoiy shuni ko‘rsatmoqchi bo‘ladi: fitrati pok inson har qanday sinovda ham o‘z pokligini saqlaydi, Alloh unga albatta najot yo‘lini ochadi. Tush ta’biri voqeasida Yusufning donoligi, Allohdan ilhomlangan bilimi va so‘zining rostligi namoyon bo‘ladi. Uning aytganlari to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqadi. Bu orqali Navoiy insonni so‘zda rostgo‘y, ishda sadoqatli, ilmda halol bo‘lishga da’vat etadi. Shuningdek, Yusufning bu holidan shunday xulosa chiqadi: ilmu- hikmat egasining yuksakligi joy bilan o‘lchanmaydi — zindonda bo‘lsa ham, u Allohning nuri bilan boshqalarga yo‘l ko‘rsatadi. Yusuf sabr qilgani, har ishda Allohga suyanib yashagani tufayli keyinchalik ulug‘ maqomga erishad. Asarda Zulayhoning Yusufga bo‘lgan muhabbati ham jismoniy hislardan ilohiy muhabbatga ko‘tarilib, uning qalbida poklik va ma’naviy uyg‘onish jarayoni sodir bo‘ladi. Yusufning sabr bilan barcha sinovlardan o‘tishi esa insonning hayotdagi mashaqqatlar oldida ruhiy tetikligini yo‘qotmasligi kerakligini eslatadi. Umuman olganda ushbu turkumdagi asar va dostonlar insonni ezgulikka chorlaydigan, muhabbatning ma’nosini yuksak darajada tasvirlovchi, sabr, vafodorlik va poklikka poklovchi ulkan adabiy yodgorlikdir. U nafaqat diniy-ma’rifir mazmui, balki badiiy go‘zalligi, falsafiy teranligi bilan ham bugungi o‘quvchi uchun ahamiyatli bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosuriddin Rabg‘uziy. “Qissasi Rabg‘uziy”, 2-kitob. – Toshkent: Yozuvchi.1991.
2. Abdurahmon Jomiy. “Yusuf va Zulayho”. –Toshkent: G. G‘ulom. -1997.
3. Qur‘oni Karim (tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur). –Toshkent: Cho‘lpon, 1992.
4. Durbek. “Yusuf va Zulayho”. – Toshkent. O‘zbekiston fanlar akademiyasi,1959.
5. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo biyo va hukamo” asari.